IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

# “IZTIROB” ROMANIDA AYOL OBRAZINING TASVIRLANISHI

**Komilova Saida**

Farg‘ona davlat universiteti,

o‘bek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi,

Ilmiy rahbar: **Sh.Maxmidjonov**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada biz “Iztirob” romanidagi ayol obrazining yoritilishi va uning asar voqealari rivojida tutgan o’rni haqida so’z yuritligan.

**Kalit so’zlar**

Iztirob, ayol, personaj, ong oqimi, badiiy psixologizm, badiiy obraz, muallif xarakteristikasi, portret, qahramon nutqi, chizgi, alam, dard.

Turk xalqining mashhur yozuvchisi Rashod Nuri Gunteginning o‘lmas asarlaridan biri “Iztirob” romani 1928-yilda nashr qilingan. Ushbu asarda Zahro ismli hayot sinovlarida yetarlicha toblangan, juda ko’p yillar otasi tog’risidagi asl haqiqatni bilmay, qalbida kemtik, qahr-u g’azab bilan yashagan bir qizning hayoti haqidagi voqealarga bag‘ishlanadi.

Asarda ayol obraziga alohida e’tibor qaratilgan. “Adabiy asarda xarakter ruhiyatini ochish, umuman, inson obrazini yartaishning muhim vositalaridan biri personaj nutqidir”. “Iztirob” romanida ham Zahro obraziga Tavfiq ismli personaj orqali ta’riflar berib o’tilgan. “…Bundan to’rt yil avval kichkinagina bir qiz oddiygina o’qituvchi sifatida bu yerga kelgandi... Hali yigirma besh yoshga to’lmasdan maktabga bosh muallim etib tayinlandi, qo’l ostiga qizlar maktabini topshirishdi. Hozir yigirma to’qqiz yoshlarda bo’lsa kerak. Tumanning eng hurmatli insonlaridan biri” Bundan tashqari uning tashqi ko’rinishi haqida deputatning Tavfiqqa bergan birgina savolidan anglab olish mumkin: “Zahro deganlari mana shu kichkina, qora qizmi?” Bu obrazlarning o’zaro muloqoti orqali biz asarning bosh qahramoni hisoblangan Zahroni 29 yoshlar atrofida bo’lgan, bo’ylari pastroq, qoracharoq qiz sifatida tasavvur qilishimiz mumkin. Bundan tashqari, personajning so’z bilan chizilgan tashqi qiyofasi-portret ham inson obrazini yaratishda muhim vosita sanaladi. “Portret, avvalo, personajning o’quvchi ko’z oldida konkret inson sifatida gavdalanishiga ko’maklashadi. Ikkinchi tomondan, badiiy asarda portret xarakterologik belgilarga ega bo’ladi. Ya’ni yozuvcvhi personaj siyratiga xos xususiyatlarni suratida aks ettirishga intiladi. Deylik, Rashod Nuri Guntegin o’quvchisini Tavfiq va deputat yordamida Zahroning oldiga “qo’lidan tutib” olib kiradi-da, ko’rsatib tanishtiradi. “Zahro o’ttiz yoshlarda edi. Ko’rinishi kichkinagina bo’lsa-da, ammo kuchli iroda sohibasi ekanligi va atrofdagilarga shirin muomala qilish bilan birga buyruq berishni ham bilishi ko’rinib turardi. Chiroyli emasdi. Qorachadan kelgan yuzi, yirikroq burni, bo’rtib chiqqan yonoqlari bor edi. Tishlari oppoq va sog’lom. Lekin ikkitasi og’zini yumganida ustki labini yengilgina shishirib turadigan darajada kattaroq edi. Yuzining eng ko’zga ko’rinadigan joyi keng va aqlli peshonasi ostidagi chimirilgan ingichka qoshlari edi. Gapirayotganda bu qoshlar juda tezlik bilan harakatlanar, taassurot va jahlini ularning darajasiga qarab, chehrasidagi ma’noni o’zgartiradi.” E’tibor bersak, bunda portret chizgilari umumiy tarzda (“kichkina”, “chiroyli emasdi”, “qorachadan

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

kelgan") berilgani holda siyrat chizgilari ("kuchli iroda sohibasi ekanligi va atrofdagilariga shirin muomala qilish bilan birga buyruq berishni ham bilishi" ) ifodalangan.

Zahro tabiatan qattiqqo'l, o'ta talabchan inson edi. U o'quvchilari orasida o'z bilimi va odob- axloqi bilan hurmat qozongan muallimadir. Hattoki bitirib ketgan o'quvchilari ham biror ish qilishdan avval undan maslahat so'raydilar. Bundan tashqari Zahro o'ta darajada jonkuyar, maktabi va bolalar uchun har qanday mehnatga tayyor inson. U hattoki maktab uchun o'g'il bolarga xos yumushlarni ham qilaveradi. Uning barcha harakatlari o'ziga xos bir uyg'unlikni tashkil qiladi. Zahroning qalbida boshqalar bilmaydigan, hammadan yashirin katta bir alam bor. Bu alamni asarning badiiy psixologizmi orqali anglashimiz mumkin. Badiiy psixologizm deyilganda personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari, gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi tushunilib, u mazkur vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi qator usul, vositalarni o'z ichiga oladi. Masalan, personaj o'z tilidan aytilgan quyidagi jumlalarga e'tibor qaratsak, "Bu odam oilamizni mahv qiladi. O'zimni zo'rg'a qutqarib qoldim. Bu ham kata qiyinchilik bilan. Siz bilmaysiz. Sakkiz yil oldin yong'indan, buzg'inchilikdan qochgan kabi o'zimni unuttirdim. To'g'rirog'i, shunday deb umid qilaman. Chunki men uchun hayotimda bir dog' bo'lgan bu odamning o'limi yanayam kattaroq dog' bo'ladi…" "O'z insoniyligimni, o'z haq-huquqlarimni unutdim. Hayotimni boshqalarning saodati uchun bag'ishladim. O'zimni o'z ixtiyorim bilan eng oson amallar, zavqlardan mahrum qildim. Yosh bolaligimdan beri chidadim, harakat qildim." Muallif shunday ayanchli o'tmishga ega bo'lgan bir ojizaning tushkin holatini, dilini birdaniga qoplagan g'azabni ishonarli va ta'sirli ifoadalay olgan.

Asarning katta bir qismi ong oqimi yordamida bayon qilinadi. Zahro o'lim to'shagida yotgan otasining oldiga borishga qaror qilib, poyezdda ketayotganda u chuqur o'yga to'ladi va barcha o'tgan voqaealarni yodga oladi. Bu voqelarni o'qish davomida biz personajga nisbatan achinish va uning otasiga nisbatan g'azab tuyg'ularini his qilamiz.

O'quvchida mutolaa qilish davomida bir savol tug'ilishi mumkin. Nahotki Zahro umrining oxirigacha shunday og'ir bir dard bilan yashasa? U hech qachon bu darddan xalos bo'lmaydimi? Bu kabi savollarga jaavobini asar so'ngida anglab olishimiz mumkin, qachonki u otasi Murshid afandining eski bir kundaligini o'qib tugatgandan keyin.

"Ota… bechora otam…meni kechiring…

Zahro bir necha kundan keyin Onado'lidagi maktabga qaytdi. Muallimaninmg endi umuman kamchiligi qolmagandi. Iztirob unga achinishni, rahm qilishni o'rgatgandi"

Badiiy asarda inson hayotining murakkabligini, jamiyat bilan uning manfaatlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, norasolik va nomutanosiblikni real tasvirlash uchun yozuvchida tug'ma iste'dod bo'lishidan tashqari, buyuk jasorat ham bo'lishi kerak." Mening fikrimcha, Rashod Nuri Guntegin yetarlicha jasoratga ega bo'lgan holatida o'lmas bir asar qoldirib ketgan.

Tog'lardan qaytayotgan aks sadoda har bir tovushning qanchalik ulushi bo'lsa, buyuk bir millat saodatida mening shunday xissam bor. (Asar qahramoni Zahro tilidan aytilgan).

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent. 2020.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

2. Rashod Nuri Guntegin. Iztirob. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2021.

3. Solijonov Y. Adabiyot xiyoboni. Toshkent. 2020.

4. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1318-1322.

WORDLY
KNOWLEDGE